

**“Kapitalbank” ATBda yuridik shaxslar va yakka tartibdagi  
tadbirkorlarga kompleks bank xizmati ko‘rsatish to‘g‘risida  
kelishuvning  
3-ILOVASI**

**“Internet-Bank-Mijoz” tizimida xizmat ko‘rsatish  
TARTIBI**

**I. QO‘SHIMCHA ATAMA VA TA‘RIFLAR:**

**1.1.** Ushbu Tartibda qo‘yidagi atama va ta‘riflardan foydalaniladi:

**Internet Bank-Mijoz (IBK)** – shaxsiy kompyuterda oldindan o‘rnatilgan ilova vositasida Mijozga banking vakolatli xodimi ishtirokisiz depozit hisobvaraqlar bo‘yicha moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish imkoniyatini beruvchi masofaviy bank xizmati tizimi;

**Tartib** – IBK tizimida xizmat ko‘rsatishning ushbu tartibi. Mazkur tartib Bank saytida joylashtirilgan;

**Ishlash qoidalari** – Saytda joylashtirilgan, ushbu Tartibning 1-Ilovasi va ajralmas qismi bo‘lgan “Kapitalbank” ATBda “Internet-Bank-Mijoz” tizimidan foydalangan holda yuridik shaxslarga masofaviy bank xizmatlari ko‘rsatish Qoidalari, Bank tomonidan Internet tarmog‘i orqali taqdim qilinadigan IBK orqali elektron hujjat aylanishi bo‘yicha Mijoz va Bank o‘rtasidagi munosabatlarni belgilab beradi;

**To‘lov topshiriqnomasi** – Mijozning topshiriqida ko‘rsatilgan summani o‘z hisobvarag‘idan oluvchining hisobvarag‘iga ko‘chirib berish haqidagi topshirig‘ini nazarda tutuvchi hisob-kitob hujjati;

**IBK tizimi uchun ERI qurilmasining topshirish-qabul qilib olish dalolatnomasi** – Taraflar o‘rtasida qog‘ozda imzolanadigan va IBK tizimdan foydalanish uchun ERIning topshirilganligini tasdiqlovchi hujjat;

**IBK tizimi uchun ERI qurilmasini qaytarib berish dalolatnomasi** - Taraflar o‘rtasida qog‘ozda imzolanadigan va IBK tizimdan foydalanish uchun ERIning qaytarib berilganligini tasdiqlovchi hujjat;

**Foydalanuvchini IBK tizimiga ulash/o‘zgartirishga buyurtmanoma (Buyurtmanoma)** - Taraflar o‘rtasida qog‘ozda imzolanadigan, Mijozga IBK tizimini ishlatishga ruxsat beruvchi hujjat;

**Mobil telefon raqami** – foydalanuvchini IBK tizimiga ulash/o‘zgartirishga buyurtmanomada Mijoz tomonidan ko‘rsatilgan uyali telefon raqami. Mobil telefon raqami Mijoz tomonidan foydalanuvchini IBK tizimiga ulash/o‘zgartirishga buyurtmanomani shaxsan Bankka kelib imzolash orqali o‘zgartirilishi mumkin. KBXSH doirasida bir vaqtning o‘zida Mijozda faqatgina bitta mobil telefon raqami bo‘lishi mumkin.

**Elektron pochta manzili** - foydalanuvchini IBK tizimiga ulash/o‘zgartirishga buyurtmanomada Mijoz tomonidan ko‘rsatilgan elektron pochta manzili. Elektron pochta manzili Mijoz tomonidan foydalanuvchini IBK tizimiga ulash/o‘zgartirishga buyurtmanomani shaxsan Bankka kelib imzolash orqali o‘zgartirilishi mumkin. KBXSH doirasida bir vaqtning o‘zida Mijozda faqatgina bitta elektron pochta manzili bo‘lishi mumkin.

**1.2.** Mazkur Tartibning matnida foydalaniladigan atama va ta‘riflar ishlah Qoidalarida keltirilgan.

**1.3.** Ushbu Tartibda foydalaniladigan atama va ta‘riflar Kelishuvdagi mazmun bilan bir xil mazmunga ega.

**II. UMUMIY QOIDALAR**

**2.1.** Ushbu Tartib Mijoz tomonidan o‘z qo‘li imzolangan Arizaga asosan Taraflar uchun majburiy bo‘ladi (kuchga kiradi), arizaga asosan Mijoz topshiriq beradi, Bank esa O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 13.02.2008-yilda 1767-son bilan ro‘yxatga olingan Umumiy foydalanishdagi telekommunikatsiya tarmoqlarini qo‘llagan holda to‘lov tizimlarini tashkil qilish” Qoidalariga asosan Mijozning hisobvaraqlariga IBK tizimidan foydalangan holda elektron usulda xizmat ko‘rsatish majburiyatini oladi.

**2.2.** Mazkur Tartib, Kelishuv, Bank Tariflari, shuningdek, Buyurtmanoma birgalikda Mijoz va Bank o‘rtasida “Internet Bank-Mijoz” tizimiga xizmat ko‘rsatish to‘g‘risidagi Shartnoma(keyingi o‘rinlarda – “Shartnoma”) orqali tuzilgan hisoblanadi.

**2.3.** IBK tizimida hisob-kitoblarni amalga oshirishda elektron hisob-kitob hujjati sifatida Mijoz tomonidan faqat To‘lov topshiriqnomasi yuborilishi mumkin. Oddiy tartib qo‘llaniladigan (Bankka qog‘oz ko‘rinishdagi hujjat nusxalarini taqdim qilish orqali) boshqa turdagi hisob-kitob hujjatlaridan foydalangan holda Mijozning depozit hisobvarag‘iga hisob-kitob xizmati ko‘rsatish Bank tomonidan Taraflar o‘rtasidan tuzilgan milliy va xorijiy valyutadagi bank hisobvarag‘i Shartnomasi asosida amalga oshiriladi.

**2.4.** Tizim bilan ishlashda Toshkent vaqti yagona vaqt o‘lchovi hisoblanadi. O‘z.R.MB apparat vositalari tizim soatlari vaqti esa nazorat vaqti hisoblanadi.

2.5. O‘z.R.ning “Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida”gi Qonuniga asosan elektron hujjat qog‘oz ko‘rinishidagi hujjatga teng hisoblanishi va u bilan bir xil yuridik kuchga ega ekanligi Taraflarga ma‘lum.

2.6. “Internet Bank-Mijoz” tizimiga ulash to‘g‘risida Mijoz tomonidan berilgan Ariza uning ishlash Qoidalari bilan tanishganligini va unga roziligini tasdiqlaydi.

### **III. TARAFLARNING MAJBURIYATI**

#### **3.1. Bankning majburiyatlari:**

3.1.1. Shifrlashning va qayta shifrlashning barcha talablariga javob beradigan, shuningdek, ERI bilan tasdiqlangan hamda Mijoz tomonidan aloqa kanallari orqali yuborilgan pul mablag‘larini unga tegishli hisobvaraقدan boshqa hisobvaraقدa va boshqa shaxslarning hisobvarag‘iga ko‘chirib berish haqidagi To‘lov topshiriqnomasini ijroga qabul qilish. Mijozning elektron To‘lov topshiriqnomalari uning hisobvarag‘ida mavjud mablag‘lari doirasida ijro qilinadi;

3.1.2. IBK tizimida ma‘lumotlarni yuborish uchun zarur bo‘lgan shifrlashning elektron kalitida (yoki kalitlarida) mijoz ERIsini taqdim qilish orqali Mijozni IBK tizimiga ulash. Elektron kalit (kalitlar) ikki taraf tomonidan imzolnadigan, ushbu Tartibning ajralmas qismi hisoblangan (ushbu Tartibning 2-Ilovasi) IBK tizimi uchun ERI qurilmasining topshirish-qabul qilib olish dalolatnomasiga asosan imzolar namunasi va muhr izi qo‘yilgan varaقدchaga muvofiq bank hujjatlariga birinchi yoki ikkinchi imzo qo‘yish huquqi berilgan shaxsgagina topshiriladi;

3.1.3. O‘rnatilgan talablarga javob beradigan tegishli To‘lov topshiriqnomalari Mijozdan olinganda ushbu Tartibning 3.1.4. bandida belgilangan muddatlarda to‘lovlarni amalga oshirish. Ular o‘rnatilgan talablarga javob bermasa yoki O‘z.R.MB DAM tomonidan qaytarilsa yoxud hisobvaraقدa hujjatni o‘tkazish uchun yetarli mablag‘lar bo‘lmasa, Bank olingan topshiriqnomalarning ijro etilmaganligi haqida aloqa kanallari orqali Mijozga ma‘lum qiladi. Bunda Bank Mijoz topshiriqnomalarining ijro qilinmaganligi uchun javobgar bo‘lmaydi.

3.1.4. Dam olish va bayram (ishlanmaydigan) kunlardan tashqari har kuni 9-00 dan bank operatsion kuni tugaguncha aloqa kanallari orqali Mijozdan hisob-kitob hujjatlarini qabul qilish;

3.1.5. O‘z.R.MB DAM va SVIFT xalqaro tizimidan Mijozning foydasiga keluvchi to‘lovlar yoki boshlang‘ich (Mijozdan) to‘lovlarga tasdiqnomalar olinganda Mijozning hisobvarag‘i bo‘yicha kerakli operatsiyalarni amalga oshirish;

3.1.6. Mijozning IBK tizimi orqali yuborilgan so‘rovi bo‘yicha unga kun davomida o‘tkazilgan chiquvchi (Mijozdan) va kiruvchi (Mijozning hisobvarag‘iga) to‘lovlar bo‘yicha elektron ko‘rinishda ma‘lumotlar yuborish. Shuningdek, menyuning alohida bo‘limi orqali tegishli davr uchun Mijozning shaxsiy hisobvarag‘idan ilovalar bilan birga ko‘chirma shakllantiriladi;

3.1.7. IBK tizimidan foydalanish va Mijozga ko‘rsatiladigan hisob-kitob xizmatiga bevosita aloqador boshqa masalalar bo‘yicha unga texnik va dasturiy yordam ko‘rsatish;

3.1.8. Unga topshirilgan pul mablag‘larining butligini ta‘minlash. Mijozdan ERIning yo‘qolganligi yoki begona shaxslarning unga ruxsatsiz kirganligi haqida rasmiy yozma xabar olinganda, Bank ushbu ERI bilan imzolangan to‘lov topshiriqnomalari bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatib turish, shuningdek, kelib tushgan bunday hujjatlar haqida Mijozning ushbu ERIGA egalik qiluvchi mansabdor shaxslariga xabar berish majburiyatini oladi;

#### **3.2. Mijozning majburiyatlari:**

3.2.1. O‘z.R.ning “Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida”gi, “Valyutani tartibga solish to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 13.02.2008-yilda 1767-son bilan ro‘yxatga olingan “Umumiy foydalanishdagi telekommunikatsiya tarmoqlarini qo‘llagan holda to‘lov tizimlarini tashkil qilish” Qoidalari, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 13.02.2013-yilda 2465-son bilan ro‘yxatga olingan “O‘zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblarni to‘g‘risida”gi Nizom va valyutani tartibga solish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining boshqa qonunchilik hujjalari, Kelishuv, shuningdek, ishlash Qoidalarining talablariga rioya qilish;

3.2.2. tizimda o‘rnatilgan ishlash texnologiyasiga, to‘lov hujjatlarini kiritish, yuborish tartibiga va xavfsizlik rejimiga rioya qilish, shuningdek, hisob-kitoblarni IBK tizimidan foydalanib o‘tkazishda ma‘lumotlarni himoya qilish bo‘yicha talablarni bajarish;

3.2.3. Ma‘lumotlarni IBK tizimi orqali yuborishda Bankdan vaqtinchalik va tekin foydalanish uchun olingan shifrlashning elektron kalitlaridan foydalanish;

3.2.4. ko‘rsatilgan bank xizmatlari uchun Bank Tariflarida nazarda tutilgan tartibda o‘z vaqtida to‘lov amalga oshirilishini ta‘minlash;

3.2.5. Mijozning ERIsi saqlanadigan Bankdan olingan shifrlashning elektron kalitlaridan lozim darajada foydalanish va Shartnoma bekor qilinganida yoki muddati tugaganida Shartnoma bekor qilingan yoxud to‘xtatilgan kundan boshlab 3 (uch) ish kunida qaytarish Dalolatnomasiga asosan (ushbu Tartibning 5-Ilovasi) ularni qaytarib berish, shuningdek, ularni Uchinchi shaxslarga bermaslik, bunday qurilmalardan foydalanish qoidalariga va

o'g'irlikning, jismoniy va elektron shikastlanishning, nosoz holga kelib qolishining oldini olish maqsadida ehtiyot choralariga rioya qilgan holda foydalanish;

**3.2.6.** Tegishli buyruq bilan belgilangan lavozim majburiyatnomalariga muvofiq ushbu tizimga ruxsati bo'lgan va foydalanuvchini IBK tizimiga ulash/o'zgartirishga buyurtmanomada (ushbu Tartibning 3-Ilovasi) ko'rsatilgan Mijoz xodimlaridan tashqari qolgan har qanday shaxslarga IBK tizimini ishlatishga ruxsat bermaslik;

**3.2.7.** IBK tizimi orqali To'lov topshiriqnomalarini o'tkazishda, agar bunga zarurat bo'lsa, shuningdek Bankning talabi bilan hisobvaraقدan pul mablag'larini o'chirish uchun o'tkaziladigan operatsiya to'g'risida qo'shimcha ma'lumotlarni, hujjatlarni yuborish;

**3.2.8.** ushbu tizimga kirishga ruxsati bo'lgan Mijoz xodimlarining ishlash Qoidalari bilan tanishganligi va ularga rioya qilishi, shuningdek, Taraflarning ushbu munosabatlarini tartibga soluvchi normativ hujjatlarga rioya qilinishi uchun bevosita Mijozning rahbari va bosh buxgalteri javobgar hisoblanadi;

**3.2.9.** U tomonidan IBK tizimidan foydalangan holda amalga oshirilgan shubhali (gumonli) operatsiyalar aniqlanganda hujjatlarni yoki o'tkazilgan operatsiyaarning qonuniyligi haqida Kelishuvda ko'rsatilgan joylashgan joyi (pochta manzili) yoxud manzili bo'yicha yozma tushuntirish taqdim qilish;

**3.2.10.** Kalitning yo'qolganligi/shikastlanaganligi/qaytarib berilmaganligi uchun ushbu Tartibning 3.2.11 bandiga asosan maxsus hisobvaraقدan jarima yechib olinganida, shifrlashning yangi elektron kaliti maxsus hisobvaraقدan ushbu Tartibning 3.11 bandida ko'rsatilgan kamaymaydigan qoldiqqacha to'ldirilganidan keyin Mijozga beriladi;

**3.2.11.** Shartnomaviy majburiyatlarni lozim darajada ta'minlash maqsadida Mijoz Bankda ochilgan 22896\_\_\_\_\_800 maxsus hisobvaraقدa Bank Tariflarida ko'rsatilgan summada kamaymaydigan qoldiqning eng kam summasidan kam bo'lmagan miqdordagi pul mablag'larini IBK tizimi bo'yicha xizmat ko'rsatish uchun oldindan to'lov sifatida zahiraga joylashtiradi. Ushbu hisobvaraقدagi mablag'lar milliy valyutadagi talab qilib olinguncha Depozit hisobvaraقدa pul mablag'lari birinchi marta kirim qilinganda akseptsiz tartibda yechib olinadi yoki Shartnomaning ushbu bandida ko'rsatilgan maxsus hisobvaraقدa amalda ko'rsatilgan xizmatlarga qarab kamaymaydigan qoldiqning eng kam miqdoridan ko'p bo'lgan miqdor chegarasida akseptsiz tartibda yechib olinadi. Kamaymaydigan qoldiq shuningdek faqatgina Mijozning aybi bilan Shifrlashning elektron kaliti yo'qotilganda, katta zarar yetkazilganda yoxud Shartnoma bekor qilinganida yoki to'xtatilganida ishlatilishi mumkin, Mijoz bunga qaytarib olinmaydigan va nizosiz huquq beradi. Bunday hollarda, Bank shifrlashning elektron kaliti yo'qotilganligi/shikastlanganligi/qaytarib berilmaganligi uchun jarima ko'rinishidagi kamaymaydigan eng kam qoldiq summasini akseptsiz (suddan tashqari) tartibda yechib olish huquqiga ega bo'ladi. Shartnoma bekor qilinganda jarima bo'yicha qarzdorlik mavjud bo'lmasa, kamaymaydigan eng kam qoldiq Bank tomonidan akseptsiz (suddan tashqari) tartibda IBK tizimi bo'yicha xizmat ko'rsatganlik uchun to'lov bo'yicha qarzdorlikni so'ndirish uchun ham foydalanilishi mumkin. Shartnoma bekor qilinganda jarima va xizmat ko'rsatganlik uchun to'lov bo'yicha qarzdorlik mavjud bo'lmasa, maxsus hisobvaraقدagi qoldiq mablag' 3 (uch) ish kunida Mijozning talab qilib olinguncha depozit hisobvaraقدa qaytariladi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 783-moddasi tartibida Mijoz ushbu orqali Bankning yuqorida ko'rsatilgan hisobvaraقدa mavjud pul mablag'larini ushbu Tartibda belgilangan hollarda keyinchalik akseptsiz (tan olib) yechib olish huquqini tasdiqlaydi. Bunda Taraflar Tartibning ushbu bandi milliy valyutadagi bank hisobvaraقدa i Shartnomasiga qo'shimcha kelishuv ekanligiga shartlashishdi;

**3.2.12.** IBK xizmatidan shaxsan foydalanish, ERI va Shartnoma bo'yicha huquqlarni uchinchi shaxslarga o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi. IBK tizimi orqali amalga oshirilgan operatsiyalar Mijoz tomonidan shaxsan amalga oshirilgan deb hisoblanadi va Mijoz IBK orqali amalga oshirilgan har qanday harakatlar va operatsiyalar uchun mustaqil javobgar bo'ladi;

**3.2.13.** Mobil telefon raqamining va elektron pochta Manzilining boshqa shaxslar tomonidan foydalanishiga imkon bermaslik, Mobil telefon raqamidan va elektron pochta Manzilidan boshqa shaxslar insofsizlarcha foydalashini mumkin deya taxmin qilish uchun asoslar paydo bo'lganida, Mobil telefon raqamining va/yoki elektron pochta Manzilining yo'qolganligi/o'g'irlanganligi haqida Bankka shaxsan kelib, zudlik bilan xabar berish;

Mobil telefon raqamining va elektron pochta Manzilining o'zgarganligi haqidagi ariza Bank tomonidan olingunga qadar Bankka oldin taqdim qilingan mobil telefon raqami va elektron pochta Manzilidan foydalanib amalga oshirilgan harakatlar uchun Mijoz javobgar hisoblanadi.

**3.3.** Taraflar maxfiylikka rioya qilishlari va ikkinchi tarafning yozma roziligisiz ma'lumotlarni oshkor qilmasliklari shart, O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

**3.4.** Taraflar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida va Kelishuvda nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

## **IV. TARAFLARNING HUQUQI**

### **4.1. Bankning huquqlari:**

**4.1.1.** Mijoz tomonidan tizimdan foydalanish va ma'lumotlarni himoya qilish qoidalari buzilganida yoki Mijoz tomonidan O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlari buzilganida, shuningdek, Ishlash qoidalariga, ushbu Tartibning va Kelishuvning talablariga rioya qilinmaganda Mijozni IBK tizimidan foydalanish huquqidan mahrum qilish;

**4.1.2.** Ishlash qoidalariga bir tomonlama o'zgartirish kiritish. Bank Ishlash qoidalariga o'zgartirish kiritishdan 5 (besh) bank kuni oldin har qanday yo'llar bilan Mijozga xabar beradi: bank binosiga e'lon osish, yozma murojaat qilish, Bank saytida yoki ommaviy axborot vositalarida e'lon berish va/yoki Bankning tanlovi bo'yicha boshqa har qanday usullarda;

**4.1.3.** Dasturiy-apparat va aloqa vositalarini qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq profilaktik ishlarda, Mijoz tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va ishlash Qoidalarini buzgan holda operatsiyalar amalga oshirilganida, shuningdek, IBK tizimidan foydalanganlik uchun Bank Tariflarida o'rnatilgan abonent to'lovi to'lanmaganda, muddati o'tkazilganida Mijozga IBK tizimiga kirishni bir tomonlama cheklash yoki to'xtatib turish;

**4.1.4.** Mijozda IBK tizimi uchun ERI qurilmasining topshirish- qabul qilib olish dalolatnomasini imzolagan shaxs o'zgartirish, elektron kalitni (kalitlarni) imzolar namunasi va muhr izi qo'yilgan varaqchaga asosan bank hujjatlariga birinchi yoki ikkinchi imzo qo'yish huquqi berilgan yangi shaxs nomiga qayta ro'yxatdan o'tkazgunga qadar Mijozni IBK tizimidan bir tomonlama o'chirish

**4.1.5.** Mijoz tomonidan IBK xizmatlaridan foydalangan holda shubhali (gumonli) operatsiyalar amalga oshirilganligi aniqlanganda, o'sha kunning o'zida Shartnomani bir tomonlama bekor qilish (uni bajarishdan to'liq voz kechish) yoki amalga oshirilgan operatsiyaning qonuniyligi haqida Mijoz yozma tushuntirish berguniga qadar IBK xizmati ko'rsatishni vaqtincha to'xtatib turish;

**4.1.6.** Mijozning joylashgan joyi (pochta manzili) yoki Kelishuvda ko'rsatilgan manzili bo'yicha shubhali (gumonli) operatsiyalar o'tkazilganida, IBK tizimidan foydalanuvchi Mijozni o'rganish, shuningdek, hisob-kitob hujjatlarining rasmiylashtirilganligini, ularning vakolatli shaxslarning (rahbar, bosh buxgalter) imzosi bilan tasdiqlanganligini, ERIGA, mazkur hujjatlarni saqlashga bevosita huquqi bo'lgan shaxs tomonidan ERI tasdiqlangandan so'nggina ushbu hujjatlar bo'yicha o'tkazmalar amalga oshirilganligini tekshirish;

**4.1.7.** Mijoz tomonidan shubhali (gumonli) operatsiyalar o'tkazishda foydalanilgan IBK xizmat ko'rsatishni nomuayyan muddatga vaqtincha bir tomonlama to'xtatib turish;

**4.1.8.** IBK xizmatlaridan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirish maqsadlarida foydalanilganligi haqida asosli shubhalar paydo bo'lsa, Shartnomani bir tomonlama bekor qilish (uni bajarishdan voz kechish);

**4.1.9.** Quyidagi hollarda Mijozni IBK tizimidan bir tomonlama o'chirib qo'yish:

- hisobvaraqda mavjud pul mablag'lariga ta'qiq qo'yilganda yoki O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida ko'rsatilgan hollarda hisobvaraq bo'yicha operatsiyalar to'xtatib turilganda;

- 30 kundan ortiq Kartoteka 2 mavjud bo'lsa;

- 1 (bir) oy mobaynida faoliyat amalga oshirilmasa va bir vaqtning o'zida talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqda pul mablag'lari mavjud bo'lmasa;

- Mijozning Bank oldida ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha 1 (bir) va undan ortiq oylar uchun qarzdorligi bo'lsa;

- amaldagi qonunchilikka asosan shaxslar Ro'yxatga tushganda pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalar (pul mablag'larini kirim qilish bilan bog'liq operatsiyalar bundan mustasno) Bank tomonidan muzlatilganda va/yoki to'xtatilganda;

**4.1.10.** Quyidagi hollarda Shartnomani bir tomonlama bekor qilish (uni bajarishdan voz kechish):

- Mijoz tomonidan shubhali (gumonli) operatsiyalar amalga oshirilganida;

- pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalar (pul mablag'larini kirim qilish bilan bog'liq operatsiyalar bundan mustasno) Bank tomonidan muzlatilganda va/yoki to'xtatilganda.

## **4.2. Mijozning huquqlari:**

**4.2.1.** O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik, Kelishuv va ushbu Tartibda boshqa narsa nazarda tutilmagan bo'lsa, hisobvarag'idagi Pul mablag'larini mustaqil ravishda tasarruf qilish;

**4.2.2.** Bankka o'z hisobvarag'idan Pul mablag'larini o'chirish to'g'risida qonuniy topshiriq berish;

**4.2.3.** hisobvaraqdan o'tkazilgan operatsiyalar haqida ma'lumot olish;

**4.2.4.** Bankdan ishlash Qoidalarini va ushbu Qoidalarga kiritilgan o'zgarishlar haqida ma'lumot olish.

**4.3.** Taraflar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida va Kelishuvda nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega bo'lishlari mumkin

## **V. XIZMATLAR UCHUN TO'LOV MIQDORI VA ULARNI TO'LASH TARTIBI**

**5.1.** IBK tizimi orqali To'lov topshiriqnomalarini qabul qilish xizmati uchun to'lov Bank Tariflariga asosan amalga oshiriladi.

**5.2.** Mijozning hisobvarag'idan IBK tizimi orqali To'lov topshiriqnomalarini qabul qilish xizmati bo'yicha to'lov uchun pul mablag'larini hisobdan chiqarish Mijozning hisobvarag'i foal yoki faol emasligidan qat'i nazar har oyda joriy oyning 1-sanasigacha O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 783-moddasiga asosan akseptsiz tartibda amalga oshiriladi, bunga Mijoz qaytarib olinmaydigan va nizosiz huquq beradi. Bunda Taraflar Tartibning ushbu bandi milliy valyutadagi bank hisobvarag'i Shartnomasiga qo'shimcha kelishuv ekanligiga shartlashishi.

**5.3.** Mijozning hisobvarag'ida Bank tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar uchun qarzdorlikni to'lash uchun pul mablag'lari mavjud bo'lmaganida yoki yetarli bo'lmaganida, qarzdorlikning qoplanmagan qismi tegishli tartibda ijro qilinadigan to'lov talabnomasi qo'yish orqali Kartoteka-2 ga joylashtiriladi. Ushbu to'lov talabnomasi biror-bir ko'shimcha tasdiqlarsiz Mijoz tomonidan akseptlangan hisoblanadi.

## **VI. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI**

**6.1.** Taraflar Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, Kelishuv va ushbu Tartibga asosan javobgar bo'ladi.

**6.2.** Bank Mijoz hisobvarag'i bo'yicha operatsiyalarning to'g'ri aks ettirilishi va elektron to'lov tizimlari orqali ma'lumotning o'z vaqtida yuborilishi uchun javobgar hisoblanadi. Qabul qilingan va Bankda qayta shifrlashdan o'tkazilgan Mijozning topshiriqnomalari ijro qilish uchun majburiy hisoblanadi, ushbu Tartibning 3.1.3 bandida ko'rsatilgan hollar, shuningdek, beligalangan muddatdan kechiktirib yuborilgan topshiriqnomalar bundan mustasno. Bank tomonidan elektron to'lovlarning qonunchilikda o'rnatilgan muddatlari buzilganda, u Mijozga har bir kechiktirilgan kun uchun kechiktirilgan elektron to'lov summasining 0.1 % miqdorida, biroq, kechiktirilgan elektron to'lov summasining 10% idan ko'p bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.

**6.3.** Mijoz tomonidan Qoidalarda nazarda tutilgan majburiyatlar bajarilmaganida, shuningdek, Mijozning ERI kalitidan ruxsatsiz foydalanilganda, yo'qotilganda, qadrsizlantirilganda, soxtalashtirilganda Mijoz ko'rgan zararlar va boshqa har qanday noxush oqibatlar uchun Bank javobgar bo'lmaydi;

**6.4.** Mijoz IBK tizim orqali depozit hisobvarag'i bo'yicha o'tkaziladigan operatsiyalarning qonuniyligi uchun javobgar hisoblanadi.

**6.5.** Mijoz ERIning butligi va begona shaxslarning unga kirishidan himoya qilish uchun javobgar hisoblanadi. ERIdan begona shaxslarning foydalanishi oqibatida Mijoz ko'rgan zarar uchun barcha javobgarlik Mijozning o'zida bo'ladi.

**6.6.** Mijoz elektron hisob-kitob hujjatlarining to'g'ri rasmiylashtirilganligi, shifrlanganligi va ularni aloqa kanallari orqali bankka yuborilganligi uchun javobgar hisoblanadi. Elektron hisob-kitob hujjatlarining aloqa kanallari orqali Bankka yuborish jarayonida ularning noto'g'ri rasmiylashtirilganligi, shifrlanganligi natijasida Mijoz ko'rgan zarar uchun Bank javobgar bo'lmaydi.

## **VII. YAKUNIY QOIDALAR**

**7.1.** Shartnoma Mijoz tomonidan Ariza berilgan paytdan boshlab kuchga kiradi va Mijozning milliy hamda xorijiy valyutadagi talab qilib olinguncha hisobvarag'i yopilgunga qadar amal qiladi.

**7.2.** Shartnoma Bank oldida qarzdorlik mavjud emaslik sharti bilan Mijozning yozma xabarnomasi yoki arizasiga asosan bir tomonlama bekor qilishini mumkin. Bunda Mijoz Bankni shartnomani bekor qilish niyati haqida Shartnomani bekor qilishning taxminiy sanasidan 7 (yetti) bank ish kuni oldin ogohlantirishi shart.

**7.3.** Bank Kelishuvda va mazkur Tartibda ko'rsatilgan hollarda Shartnomani bir tomonlama bekor qilish (Shartnomadan bajarishdan voz kechish) huquqiga ega

**7.4.** Shartnomani bir tomonlama bekor qilish to'g'risidagi xabarnoma Bank tomonidan Mijozga qog'ozda jo'natiladi. Mijozga xabarnoma yuborilganidan 5 (besh) ish kuni o'tganidan so'ng shartnoma bekor qilingan hisoblanadi. Xabarnoma solingan konvertni Respublika maxsus aloqa uzeli kuryeriga topshirilgan va/yoki Mijozga qo'lda topshirilgan va/yoki xat pochta aloqasi orqali jo'natilgan sana Mijozga xabarnoma yuborilgan sana bo'lib hisoblanadi.

**7.5.** Shartnoma bekor qilinganida yoki to'xtatilganida Bank Tariflariga asosan vositachilik haqi to'lovlari Mijozga qaytarilmaydi.

**7.6.** Shartnoma bilan bog'liq nizolar taraflar tomonidan muzokara yo'li bilan o'zaro hal qilinadi. Nizolarni muzokara qo'li bilan hal qilishning imkoniyati bo'lmagan hollarda, nizolar Kelishuvda belgilangan tartibda hal etiladi.

**7.7.** Ushbu Tartibda nazarda tutilmagan Bank va Mijoz o'rtasidagi munosabatlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va Kelishuv bilan tartibga solinadi.

**“Internet-Bank-Mijoz” tizimiga xizmat ko‘rsatish Tartibiga**  
**1-Ilova**

**“Kapitalbank” ATBda “Internet-Bank-Mijoz” (keyingi o‘rinlarda “iBK”) tizimidan foydalangan holda**  
**yuridik shaxslarga masofaviy bank xizmatlari ko‘rsatish**  
**QOIDALARI**

**1. Umumiy qoidalar**

1.1. Ushbu Qoidalar “iBK” tizimidan foydalangan holda yuridik shaxslarga masofaviy bank xizmatlari ko‘rsatish tartibini o‘rnatadi va xizmat ko‘rsatish jarayonida Taraflarning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini belgilaydi. x

1.2. Ushbu Qoidalarda quyidagi atama va ta‘riflardan foydalaniladi:

**Bank** – “Kapitalbank” aksiyadorlik tijorat banki.

**Mijozlar** – yuridik shaxslar, ularning filiali, alohida balansga ajratilgan boshqa alohida bo‘linmalari, Bank iste‘molchilari hisoblangan davlat hokimiyati va boshqaruv organlari.

**Tizim** – global Internet tarmog‘i (keyingi o‘rinlarda Internet) dan foydalanib [www.bank24.uz](http://www.bank24.uz) manzili orqali Mijoz va Bank o‘rtasida tezkor aloqaga kirish uchun mo‘ljallangan hamda ma‘lumotlar olishni, Mijoz Topshiriqnomalarini shakllantirishni, jo‘natishni, ro‘yxatdan o‘kazishni ta‘minlovchi “iBK” tizimi.

**Shartnoma** - “iBK” tizimida xizmat ko‘rsatish shartnomasi.

**Topshiriq** - Mijozning Tizimda shakllantirilgan Bank tomonidan ma‘lumot taqdim etish haqidagi so‘rovi va (yoki) muayyan harakatlarni bajarish (to‘lov topshiriqnomasi) bo‘yicha Bankka beradigan ko‘rsatmasi.

**Keyinga qoldirilgan Topshiriq** – Bank tomonidan belgilangan muayyan shartlar bajarilganidan so‘ng ijro etiladigan Bank tomonidan ro‘yxatga olingan topshiriq.

**Elektron Raqamli Imzo (ERI)** – ERI shakllantirilgan paytdan boshlab elektron hujjatda xato ma‘lumotlarning yo‘qligini aniqlashga va imzoning ERI kaliti sertifikatiga egasiga tegishlilikini tekshirishga imkon beradigan elektron hujjat rekviziti. Rekvizitning belgilari ERI yopiq kalitidan foydalangan holda axborotni kriptografik almashtirish natijasida olinadi.

**Topshiriqni avtorizatsiya qilish** – Topshiriqni ro‘yxatga olishda Mijozni qo‘shimcha Autentifikatsiya qilish va Topshiriqning haqiqiylikini, o‘zgarmasligini hamda to‘liqligini nazorat qilish, Topshiriqni ro‘yxatga olishda uning muallifi Mijoz ekanligini tasdiqlash hamda Bank tomonidan Mijozning muallifligi haqida yuridik ahamiyatga ega dalilni olish maqsadida ERI vositalaridan foydalanishga asoslangan jarayon.

**Foydalanuvchi** – Tizimda Topshiriqlarni Avtorizatsiya qilishdan tashqari, boshqa harakatlarni bajarishga vakolat berilgan Mijoz xodimi.

**Foydalanuvchi – Operator (Operator)** – Mijoz tomonidan uning pasport ma‘lumotlariga ERIni ro‘yxatga olishga va o‘z navbatida, ERI yordamida Topshiriqlarni Avtorizatsiya qilishga vakolat berilgan Foydalanuvchi.

**Autentifikatsiya** – Ro‘yxatga olish va maxfiy ma‘lumotlardan foydalanib Foydalanuvchini va/yoki Operatorning haqiqiylikini tekshirish.

**Autentifikatsiya parametrlari** – Foydalanuvchi nomi, Parol, Elektron kalit.

**Elektron kalit** - himoyalangan USB-flash xotira ko‘rinishidagi ERIni saqlovchi qurilma. Topshiriqni Avtorizatsiya qilish uchun Tegishli dasturiy sozlama bilan birga foydalaniladi.

**Plug-in** – topshiriqlarini ERI bilan avtorizatsiya qilish uchun elektron kalit bilan o‘zaro bog‘langan Internet brauzer uchun dasturiy sozlama.

**Foydalanuvchi nomi (Login)** – Foydalanuvchi tomonidan Tizimga kirish uchun tanlangan o‘ziga xos nom.

**Parol** – Foydalanuvchini autentifikatsiya qilish uchun Foydalanuvchi nomi bilan birga foydalaniladigan belgilar ketma-ketligi. Paroldan ko‘p parotaba foydalaniladi.

**Tasdiqlash vositalarining qadrsizlanishi** – tasdiqlash vositalarining (Parol va Elektron kalit) begona shaxslar tomonidan foydalana olmasligiga ishonchning yo‘qolishi.

**Axborotni e‘lon qilish** – axborotni ushbu axborot bilan Mijozlarning tanishish imkoniyatini ta‘minlovchi joylarda va ushbu Qoidalarda belgilangan usullarda joylashtirish. Axborotni e‘lon qilish uni ommaviy axborot vositalarida majburiy tarqatishni anglatmaydi.

1.3. Bank ushbu Qoidalar matnini bir tomonlama o‘zgartirish huquqini o‘zida saqlab qoladi

1.4. Bank Tizimga o‘zgartirish kiritish huquqiga ega.

1.5. Ushbu o‘zgartirishlar e‘lon qilinadi.

## **2. Tizimdan foydalanish va unga kirishga ruxsat olish shartlari.**

2.1. Foydalanuvchi tomonidan kompyuterdan, 7.0 versiyadan past bo'lmagan Microsoft Internet Explorer dasturidan foydalanish va Internetga kirish imkoniyatining mavjudligi Tizimdan foydalanishning shartlari bo'lib hisoblanadi

2.2. Bank o'zining web-saytida Tizimga kirishga ruxsat beradi.

2.3. Foydalanuvchilarga Mijoz va Bank o'rtasida tuzilgan shartnomaga asosan Tizimga kirishga ruxsat beriladi.

2.4. Mijoz tegishli Buyurtmanomaga Operator qilib tayinlanadigan xodimning F.I.Sh va boshqa pasport ma'lumotlarini ko'rsatib, imzo va muhr qo'yish orqali mustaqil ravishda o'zining bir yoki bir nechta xodimini Operator qilib tayinlaydi. Buyurtmanoma tegishli xodimning pasport nusxasi bilan birgalikda beriladi.

2.5. Elektron kalitni olish uchun Mijozning buyurtmanomada tizim Operatori sifatida tayinlash uchun ko'rsatilgan xodimi tegishli bo'linmaning Axborot Texnologiyalari bo'limiga pasportining asl nusxasi bilan murojaat qiladi.

2.6. Topshiriqlarni avtorizatsiya qilish uchun Operator Tizimning web-saytidan dasturiy sozlamani installatsion paketini yuklab olishi hamda o'zining kompyuteriga o'rnatishi kerak. Installatsion paket shuningdek Elektron kalitni olish vaqtida Operator tomonidan taqdim qilingan har qanday tashuvchida yozib olinishi mumkin.

2.7. Birinchi marta Tizimga kirish uchun Tizim Foydalanuvchisiga ro'yxatdan o'tgan paytda ko'rsatilgan mobil telefon raqamiga avtomatik tarzda generatsiya qilingan SMS xabarnoma ko'rinishidagi parol jo'natiladi. Ushbu parol Foydalanuvchi tomonidan birinchi marta ulangandan so'ng o'zgartirilishi mumkin.

2.8. Bank Foydalanuvchi autentifikatsiya qilingandagina Tizimga kirishga ruxsat beradi. Foydalanuvchi Tizim bilan ishlashga ro'yxatdan o'tish vaqtida u uchun Bank vakolatli xodimi tomonidan o'rnatilgan huquqlar doirasida ruxsat oladi.

2.9. Mijoz Operatorini almashtirishga zarurat tug'ilganida amaldagi Operatorning elektron kalitini bergan holda mazkur Qoidalarning 2.4 va 2.5 bandlari talablari bajariladi. Mijoz Operatori almashtirilganda Tizim tomonidan oldingi Operatorning kirishiga chek qo'yiladi.

2.10. Tizim bitta Operatorga bitta Mijozning Bankning turli filiallarida topshiriqlarini avtorizatsiya qilish funksiyasini tayinlash imkoniyatini nazarda tutadi. Buning uchun tegishli Mijoz 2.4 bandga asosan amaldagi Operatorni ko'rsatgan holda buyurtmanoma tuzadi.

2.11. Tizim "ko'pchilik bittaga" sxemasi bo'yicha Foydalanuvchi-Mijoz o'rtasida aloqa qilish imkoniyatini nazarda tutadi. Bitta Mijoz cheklanmagan miqdorda Foydalanuvchi va/yoki Operatorlarga ega bo'lishi mumkin. Bitta Foydalanuvchi yoki Operator esa bir yoki bir nechta Bank filiallarida bitta Mijozning ma'lumotlariga kirishga tegishli ruxsati bo'lishi mumkin.

### **2.12. Topshiriqlarni ijro qilish shartlari**

2.13. Foydalanuvchi Mijoz nomidan Tizimda operatsiyalar o'tkazish va axborot olishning tashabbuskori bo'lib hisoblanadi, buning uchun u tegishli Topshiriqlarni shakllantiradi, bunga javobdan Bank talab qilingan axborotni taqdim qiladi, Topshiriqlarni ijroga qabul qiladi yoki ularni rad etadi.

2.14. Foydalanuvchining Topshiriqlarini ijroga qabul qilish mijoz – yuridik shaxslarga xizmat qilish uchun o'rnatilgan bank kuniga muvofiq amalga oshiriladi.

2.15. Foydalanuvchining Topshiriqlari, Topshiriqlarning mazmuni va turiga qarab quyidagilarni talab qilishi mumkin:

Operator ERIsini tasdiqlash;

Bankka qo'shimcha elektron va qog'oz hujjatlarni berish;

Qayta telefon qo'ng'irog'i orqali tasdiqlash.

## **3. Xavfsizlikni ta'minlash shartlari**

3.1. Internet vositasida Tizimdan foydalanishda Mijoz va Bank o'rtasidagi o'zaro munosabat Bankning [www.bank24.uz](http://www.bank24.uz) web-saytida amalga oshiriladi.

3.2. Tizim axborotni ochiq aloqa vositalari orqali taqdim qiladi. Ma'lumotlarni yuborishda xavfsizlikni ta'minlash uchun SSL (SecureSocketsLayer) protokolidan foydalaniladi.

3.3. Foydalanuvchining Tizimga kirishida avtomatik ro'yxatdan o'tishdan himoya qilish uchun qo'shimcha koddan foydalaniladi.

3.4. Mijozning Topshiriqlari qo'shimcha ravishda Operatorning ERIsi bilan tasdiqlanadi.

3.5. Foydalanuvchi o'zining Autentifikatsiya Parametrlarini sir saqlashi va uchinchi shaxslarga bermasligi shart.

3.6. Bankda Foydalanuvchi nomidan ruxsatsiz kirishga urinish ehtimoli borligi haqida yetarli asoslar mavjud bo'lsa, Bank Foydalanuvchining Tizimga kirishini to'xtatish yoki cheklash huquqiga ega

## **4. Mijozni ulash**

4.1. Mijoz tizimda xizmat ko'rsatish haqida Shartnoma va Foydalanuvchini ro'yxatdan o'tkazish haqida Buyurtmanoma namunasini bankning web-saytidan ([www.kapitalbank.uz](http://www.kapitalbank.uz) yoki [www.bank24.uz](http://www.bank24.uz)) yuklab oladi. Chop etadi, to'ldiradi va o'zining rekvizitlarini rahbar imzosi hamda muhr bilan tasdiqlaydi.

4.2. Shuningdek, Mijoz Tizimda ro'yxatdan o'tish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni Bankning istalgan bo'linmasidan olishi mumkin.

4.3. Mijoz Mijozlarning hisobvarag'iga hisob-kassa xizmati ko'rsatuvchi tegishli Bank filialiga shartnomani imzolash va Foydalanuvchi va/yoki Operatorni ro'yxatdan o'tkazish hamda ulash uchun zarur bo'lgan jarayonlarni bajarish uchun murojaat qiladi.

4.4. Foydalanuvchi, Tizimda ro'yxatdan o'tish uchun, imzolangan va ikki taraf tomonidan tasdiqlangan Foydalanuvchini yoki Operatorni ro'yxatdan o'tkazish haqidagi Buyurtmanoma (Operator pasportining nusxasi bilan) bilan Axborot texnologiyalari bo'limining vakolatli xodimiga murojaat qiladi.

4.5. Axborot texnologiyalari bo'limining xodimi Buyurtmanomada ko'rsatilgan ma'lumotlarga asosanib Foydalanuvchini ro'yxatdan o'tkazadi. Foydalanuvchi Login ni o'zi mustaqil tanlaydi, parol esa avtomatik tarzda generatsiya qilinadi hamda Foydalanuvchigi ro'yxatga olish vaqtida ko'rsatilgan mobil telefon raqamiga SMS xabarnoma ko'rinishida yuboriladi.

4.6. Foydalanuvchi-Operatorni ro'yxatga olishda, Axborot texnologiyalari bo'limining xodimi ERIni Elektron kalitning yopiq qismida generatsiya qiladi. Elektron Elektron kalitni olish uchun Foydalanuvchi-Operator pasportini ko'rsatishi shart.

## **5. Foydalanuvchi-Operatorni almashtirish.**

5.1. Foydalanuvchi-Operatorni almashtirishga zarurat tug'ilganida, Mijoz ERIning egasi almashayotganligini ko'rsatgan holda Foydalanuvchi-Operatorni ro'yxatdan o'tkazishga yangi buyurtmanoma to'ldirishi kerak.

5.2. Almashayotgan Operator uchun Tizimga kirish darajasi bo'yicha tuzatishlar kiritish zarurati bo'lsa, ularni ham buyurtmanomada ko'rsatish shart.

5.3. Buyurtmanomaga yangi Operatorning pasport nusxasi ilova qilinishi kerak.

5.4. Mijozning Foydalanuvchi-Operatorni sifatida belgilangan xodimi Axborot texnologiyalari bo'limi vakolatli xodimiga ikki taraq imzolagana buyurtmanoma, pasport va o'zining nomiga kalitlarni qayta generatsiya qilish maqsadida almashtirilayotgan Operatorning Elektron kaliti bilan murojaat qilishi kerak.

5.5. Oldingi Operatorning Tizimga kirishi bloklanadi.

## **6. Parolni qayta tiklash**

6.1. Foydalanuvchining parolini qayta tiklash zarur bo'lganda (esidan chiqqan, aytib qo'ygan va boshq.) Foydalanuvchi shaxsan Bankka murojaat qilishi yoki foydalanuvchilarni qo'llab-quvvatlash xizmati mas'ul xodimiga o'zining rekvizitlarini aytib, parolni qayta tiklashni so'rab telefon qilishi kerak.

6.2. Foydalanuvchilarni qo'llab-quvvatlash xizmati mas'ul xodimi yangi parolni generatsiya qiladi hamda Foydalanuvchining ro'yxatga olingan vaqtdagi raqamiga SMS xabarnoma ko'rinishida yuboriladi.

## **7. Mobil telefon raqamini, elektron pochmani, kirish darajasini, hisobvaraqlarni va boshqa rekvizitlarni almashtirish.**

7.1. Foydalanuvchining vakolatiga kirmaydigan, Foydalanuvchini ro'yxatdan o'tkazishda ko'rsatilgan telefon raqam, elektron pochta, kirish darajasi, hisobvaraqlar, Operatorning pasport ma'lumotlari kabi rekvizitlarni va boshqa ma'lumotlarni o'zgartirish zarur bo'lsa, Mijoz rekvizitlarga o'zgartirish kiritilayotganligini ko'rsatgan holda Foydalanuvchi-Operatorni ro'yxatdan o'tkazishga yangi buyurtmanoma to'ldirishi shart

7.2. Buyurtmanomada Foydalanuvchining identifikatsion ma'lumotlari va o'zgartirilishi lozim bo'lgan rekvizitlar ko'rsatilishi kerak.

7.3. Foydalanuvchi Mijoz rahbarining imzosi va muhr qo'yilgan buyurtmanoma bilan Axborot texnologiyalari bo'limining mas'ul xodimiga murojaat qiladi.

7.4. Buyurtmanomada ko'rsatilgan ma'lumotlarga qat'iy asoslangan holda tizimga tuzatishlar kiritiladi.

## **8. Tizimga kirishni bloklash va bloklashdan ochish.**

8.1. Barcha foydalanuvchilarning Tizimga kirishini bloklash zarur bo'lsa, rahbar Tizimga kirishni umumiy bloklashga buyurtmanoma rasmiylashtiradi.

8.2. Bankning mas'ul xodimi buyurtmanomaga asosan tegishli Mijozning barcha foydalanuvchilari uchun Tizimga kirishni bloklaydi.

8.3. Bloklashni ochish uchun tashkilot rahbari bloklashni ochish uchun buyurtmanomani rasmiylashtiradi. Bloklash ochilganda, tegishli Mijozning barcha foydalanuvchilari uchun bloklash ochiladi.

## **9. Tizimda xizmat ko'rsatishni bekor qilish.**

9.1. Shartnoma bekor qilinganda Tizimda Mijozga xizmat ko'rsatish bekor qilinadi va Bankning ma'sul xodimi Tizimda Mijoz Foydalanuvchilarining ishini bloklaydi.



**“Internet-Bank-Mijoz” tizimiga xizmat ko‘rsatish Tartibiga  
2-Ilova**

**Foydalanuvchini IBK tizimiga ulash/o‘zgartirishga buyurtmanoma**

Ulash

Tuzatish kiritish

O‘chirish

Mijozning nomi :

Mijoz kodi:

MFO:

1-Elektron Raqamli Imzo

2-Elektron Raqamli Imzo

FISH:

FISH:

Lavozimi:

DIREKTOR

Lavozimi:

BUXGALTER

Mobil telefon: +998

Mobil telefon: + 998

e-mail:

e-mail:

IBK tizimida ishlash Qoidalari (IBK tizimiga xizmat ko‘rsatish Tartibining 1-Ilovasi) bilan tanishdim

IBK tizimida ishlash Qoidalari (IBK tizimiga xizmat ko‘rsatish Tartibining 1-Ilovasi) bilan tanishdim

Ko‘rishga (ERI kaliti talab qilinmaydi)

Ko‘rishga (ERI kaliti talab qilinmaydi)

Xujjatlarni yuborishga\* (ERI kaliti berilsin)

Xujjatlarni yuborishga\* (ERI kaliti berilsin)

(\* - Foydalanuvchining pasport nusxasini ilova qilish kerak) (\* - Foydalanuvchining pasport nusxasini ilova qilish kerak)

Xujjatlarni yuborishga (mavjud ERI kalitiga ulansin)

Xujjatlarni yuborishga (mavjud ERI kalitiga ulansin)

ruxsat

Filial MFOsi \* \_\_\_\_\_ Kalitning S/N \_\_\_\_\_

Filial MFOsi\* \_\_\_\_\_ Kalitning S/N \_\_\_\_\_

(\* - kalitni bergan filial)

(\* - kalitni bergan filial)

Xizmat faollashtirilsin (IBK)\* (\* - “Internet Bank-Mijoz” xizmati Bank hisobvaraqlar ochilganidan so‘ng faollashtiriladi)

Xizmat faollashtirilsin (IBK)\* (\* - “Internet Bank-Mijoz” xizmati Bank hisobvaraqlar ochilganidan so‘ng faollashtiriladi)

Sana: \_\_\_\_\_

Taraflarning imzosi:

**BANK**

**MIJUZ**

\_\_\_\_\_  
(imzo, familiya, bosh harflar)

\_\_\_\_\_  
(imzo, familiya, bosh harflar)

M.O‘.

M.O‘.

**“Internet-Bank-Mijoz” tizimiga xizmat ko‘rsatish Tartibiga**  
**3-Ilova**

**IBK tizimi uchun ERI qurilmasining topshirish-qabul qilib olish**

**D A L O L A T N O M A S I**

Toshkent sh. “\_\_\_” \_\_\_\_\_ 201\_\_ g.

Aksiyadorlik tijorat bank “Kapitalbank” (Keyingi o‘rinlarda “Bank” deb nomlanadi) nomidan \_\_\_\_\_ asosida harakat qiluvchi \_\_\_\_\_ bir tomondan va keyingi o‘rinlarda “Mijoz” deb nomlanadigan \_\_\_\_\_ nomidan \_\_\_\_\_ asosida harakat qiluvchi \_\_\_\_\_ ikkinchi tomondan, ushbu Dalolatnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

1. Bank Mijozga \_\_\_\_\_ .SN \_\_\_\_\_ ERI qurilmasini topshirdi, Mijoz esa qabul qilib oldi.

2. Bankning Mijoz oldidagi majburiyatlari elektron hujjat aylanishi Qoidalariga asosan aniq bajarildi, Mijozda e’tirozlar mavjud emas.

Kalitni berdi: \_\_\_\_\_ Kalitni oldi: \_\_\_\_\_  
*FISH imzo FISH imzo*



Taraflarning imzolari:

**BANK**

**MIJUZ**

\_\_\_\_\_  
(imzo, familiya, bosh harflar)

\_\_\_\_\_  
(imzo, familiya, bosh harflar)



M.O‘.

M.O‘.

**“Internet-Bank-Mijoz” tizimiga xizmat ko‘rsatish Tartibiga**  
**4-Ilova**

**IBK tizimi uchun ERI qurilmasini qaytarib berish**

**D A L O L A T N O M A S I**

Aksiyadorlik tijorat bank “Kapitalbank” (Keyingi o‘rinlarda “Bank” deb nomlanadi) nomidan \_\_\_\_\_ asosida harakat qiluvchi \_\_\_\_\_ bir tomondan va keyingi o‘rinlarda “Mijoz” deb nomlanadigan \_\_\_\_\_ nomidan \_\_\_\_\_ asosida harakat qiluvchi \_\_\_\_\_ ikkinchi tomondan, ushbu Dalolatnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

1. 1. Bank Bank Mijozga \_\_\_\_\_ .SN \_\_\_\_\_ ERI qurilmasini topshirdi, Mijoz esa qabul qilib oldi.

2. Bankning Mijoz oldidagi majburiyatlari elektron hujjat aylanishi Qoidalariga asosan aniq bajarildi, Mijozda e‘tirozlar mavjud emas.

Kalitni berdi: \_\_\_\_\_ *FISH imzo* Kalitni oldi: \_\_\_\_\_ *FISH imzo* ✓

Taraflarning imzolari:

**BANK**

**MIJUZ**

\_\_\_\_\_  
(imzo, familiya, bosh harflar)

\_\_\_\_\_  
(imzo, familiya, bosh harflar) ✓

M.O‘.

M.O‘.

